

## BOLALAR HAJVIY LIRIKASI RIVOJIDA ANVAR OBIDJON IJODINING O‘RNI

**Muhammadova Maftuna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek bolalar she’riyatida hajviylik muammosi hamda bu jarayonda Anvar Obidjon ijodining o‘rni masalasi tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yumor, satira, hajviylik, uslub, badiiy til, ijodkor, shoir, adabiyotshunos, davr.

**Abstract:** The article examines the problem of humor in Uzbek children’s poetry and the role of Anvar Obidjon’s work in this process.

**Key words:** Humor, satire, comedy, style, artistic language, creator, poet, literary critic, era.

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема юмора в узбекской детской поэзии и роль творчества Анвара Обиджона в этом процессе.

**Ключевые слова:** Юмор, сатира, комедия, стиль, художественный язык, творец, поэт, литературный критик, эпоха.

### KIRISH

O‘zbek bolalar she’riyatida hajviylik muammosi tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator monografik tadqiqot va risolalar ham kam emas. Ularda o‘zbek bolalar she’riyatida qahramon, badiiy til va uslub, satira va yumor masalalari ijodkor mahorati nuqtai nazaridan u yoki bu darajada o‘rganilganini kuzatish mumkin. Bu tadqiqot, monografiya va risolalarda, garchi badiiy ijodga davr bilan bog‘liq bir yoqlama

yondashish holatlari mavjud bo'lsa-da, kichkintoylar adabiyotining badiiy o'ziga xosligi, tasvirning shartliligi, adabiy tanqidning ushbu muammoga munosabati xususida e'tiborli kuzatishlar o'z aksini topgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Jumladan, Z.Odilovanning "O'zbek bolalar she'riyatida yumor va satira (60-70-yillar)" nomli tadqiqotida o'tgan asrning 60-70- yillari bolalar she'riyati materiallari asosida satira va yumordan foydalanish mahorati hamda yumorning bolalar she'riyatida tutgan o'rni masalalari o'rganilgan. Tadqiqotchi Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat, Po'lat Mo'min kabi bolalar shoirlari yaratgan hajviy she'rlarni tadqiq etib, satira va yumorning tarbiyaviy o'rni, kulgi asosida fosh qilish va obraz muammolariga umumiy munosabat bildiradi.

Yuqorida qayd etilgan izlanishlar asosan o'tgan asrning 60-70-yillari materiallari asosida olib borilgan bo'lsa, D.Rajabov va K.Turdievaning tadqiqotlarida 80-90-yillar bolalar adabiyotidagi badiiy mahorat va lirik qahramon yaratish muammosi tadqiq etilgan.

Biroq bu tadqiqotlarda hajviy she'rlar alohida poetik hodisa sifatida maxsus o'rganilmagan. Vaholanki, shu davr bolalar she'riyatida T.Adashboyev, A.Obidjon, Q.O'tayev, R.Tolipov, A.Ko'chimov, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, D.Rajabov, A.Akbar kabi iste'dodli shoirlar ijodining kattagina qismini hajviy asarlar tashkil etadi. Ularda kichkintoylar xulq-atvoridagi kamchiliklardan tortib yangilanayotgan jamiyatimiz taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan illatlarga qalamga olinadi. Shuningdek, istiqlol davri bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish muammosi ham haligacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda. Matbuotda chop etilayotgan ayrim maqolalardagina bu masala xususida ba'zi fikr-mulohazalar o'rta tashlangan, xolos.

### **NATIJALAR**

Anvar Obidjon, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar, Rustam Nazar kabi shoirlarning bu boradagi izlanishlari xarakterlidir. Anvar Obidjonning "Juda qiziq voqea" nomli she'riy to'plami boshdan-oyoq shu tipdagi yumoristik she'rlardan tashkil

topgan. Shoirning o‘zi ham kitob muqaddimasida: "... bolalarning dunyosi, ona tabiat nafasi, turli buyum va jonzotlarning sirli olami haqida iloji boricha quvnoqroq tarzda so‘z yuritishga harakat qildim", deya e’tirof etadi. To‘plamdagi "Xabar sotuvchi" she’rini o‘qigandayoq bu holni yaqqol his etish mumkin. Mazkur she’r xalq og‘zaki ijodi, xususan, xalq dostonlaridagi shahar kezib, turli-tuman mollarni sotib yuruvchi attorlarning qo‘shiqdari usulida yozilgan bo‘lib, quvnoq yumorga boydir.

*Yangi gaplar sotaman,*

*Eski gaplar ham.*

*Bolajonlar, kepqoling,*

*Qoldi juda kam.*

*Surishtirmang narxini,*

*Shardan ham arzon.*

*Xo‘rozqandga – rost xabar,*

*Pishloqqa – yolg‘on.<sup>1</sup>*

Shu tariqa quvnoqlik bilan boshlangan she’rda turli-tuman hayvonlaru parrandalar, jonivorlar haqidagi "eski-yangi gap"lar "arzon baho"ga sotilishi ta’sirchan manzaralarda tasvirlanadi. Bunda "yangi gap"ning kepaksiz ungayu eskisining puch yong‘og‘i sovunga "almashishi"dan tortib, kaptarning tushida burgutni yeb qo‘yishigacha, tulkivoyning bitta xo‘rozni tutib kelib bo‘riga hiringlashiyu, hazilni uncha xush ko‘rmaydigan bo‘rining avval xo‘rozni, keyin tulkining o‘zini yeyishigacha, uch yil bir sinfdan o‘qigan eshakning ayiqni "savodsiz" deb haqorat qilishigacha, xullas, ko‘plab majoziy obrazlarning xilma-xil yumoristik ruh bilan yo‘g‘rilgan qiyofalarini ko‘ramiz.

So‘nggi davr bolalar she’riyatida yumoristik obraz yaratishda, asosan, ikki yo‘nalish ustuvorlik qiladi. Birinchi yo‘nalishni bevosita bolalarning yumoristik obrazlari yaratilgan she’rlar tashkil etadi. Bu tipdagi she’rlarda shoirlar bolalar tabiatida uchrab turadigan ayrim sho‘xlik va o‘yinqaroqliklarni, dangasalik va to‘polonchlik odatlarini quvnoq qahqaha bilan fosh etadilar. Shu jihatdan

---

<sup>1</sup> Anvar Obidjon O‘g‘irlangan pahlavon. –T: Cho‘lpon, 2006 yil 20-bet

T.Adashboyev, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab kabi shoirlar yaratgan qahramonlar alohida ahamiyatga ega. Ularning asarlarida obraz ruhiyatidagi yetakchi xususiyatlar yumoristik kulgu vositasida ta'sirchan qilib tasvirlanadi.

### MUHOKAMA

Yosh kitobxonlarning ma'naviy dunyosini boyitishda, estetik didini shakllantirishda Anvar Obidjon ijodining tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir. "Ijod olamiga qadam bosibmanki, ko'nglimning quliga aylanib, bor inon-ixtiyorimni deyarli uning qo'liga topshirib qo'yganman. Shu-shu, uning izmidan chiqolmayman, «Ke, oshna, manavi narsani yozaylik», dedimi, miq etmasdan itoat qilaman, u shivirlayveradi, men shosha-pisha qog'ozga tushiraveraman."<sup>1</sup>

Shoirning "Juda qiziq voqea" kitobiga kiruvchi bir qator she'rlari o'zining ixchamligi, badiiy mukammalligi, yumorga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir "Kulchalar" turkumidagi debocha vazifasini o'tovchi "Kezaman, yozaman..." she'rida ramziy tarzda ta'kidlaganidek mazkur she'rlarida bolalar hayotida uchrab turadigan, birqarashda nazarga tushmaydigan, lekin asli bolalik olamini, uning tuyg'ularini, hayot tarzini, voqelikka bo'lgan munosabatini noziklik bilan ilg'ay olganligini eng muhim, uni yosh kitobxon o'stiradigan tarzda quvnoq ohanglarda tasvirlay olganligini ko'rish mumkin.

Shoir oddiygina xodisadan ham poetik mazmun topa oladi. Masalan, kichkintoylarga "kimning qizisan?" – deb savol bersalar, "Otamning qiziman", - deb javob berishadi. Familiyasini so'rasangiz, soddalik bilan otasining kasbi bilan bog'lab javob berishadi. Shoir shu kabi xuddi qo'shiq qilganday o'ynoqi satrlarga tizadi. "Otasining qizi" she'rida Jamilaxondan familiyasini so'raganda u shunday javob beradi:

O'ylanib der

Jamila:

- Bog'bon qizi –

<sup>1</sup> <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/anvar-obidjon-konglimizning-mayli-ichki-tarbiyamizga-bogliq.html>

Familiyam.<sup>1</sup>

Anvar Obidjon faqat bolalarning xarakterini ochishga xarakat qilgan she'rlaridagina emas, balki predmetlar, narsa hodisalarga bag'ishlangan, she'rlarida ham shunday mahorat bilan qalam teratadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Anvar Obidjonning bolalarga bag'ishlangan satirik va yumoristik she'rlarda kichkintoylarning fe'l-atvoridagi mayda-chuyda illatlardan ko'ra ijtimoiy taraqqiyotdagi yangilanishlar bilan bog'liq ma'naviy-ahloqiy muammolarga ko'proq e'tibor berilgan. Ayni shu xususiyatlar estetik tamoyillarga aylanib, istiqloq davri o'zbek bolalar adabiyotining yangicha taraqqiyot tendensiyalarini yuzaga keltirmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Anvar Obidjon O'g'irlangan pahlavon. –T: Cho'lpon, 2006 yil 20-bet
2. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/anvar-obidjon-konglimizning-mayli-ichki-tarbiyamizga-bogliq.html>
3. Anvar Obidjon O'g'irlangan pahlavon. –T: Cho'lpon, 2006 yil 37-bet

---

<sup>1</sup> Anvar Obidjon O'g'irlangan pahlavon. –T: Cho'lpon, 2006 yil 37-bet